



O'QUVCHILARNING OG'ZAKI NUTQ KO'NIKMALARINI O'LCHASH KONSTRUKTLARI EVOLUTSIYASI

Feruza G'aybulloyeva Bobir qizi

Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti

O'zbek tili va uni o'qitish metodikasi kafedrası

2- bosqich tayanch doktoranti

<https://doi.org/10.5281/zenodo.20598131>

ARTICLE INFO

Qabul qilindi: 1-iyun 2026 yil

Ma'qullandi: 5-iyun 2026 yil

Nashr qilindi: 8-iyun 2026 yil

KEY WORDS

*Og'zaki nutq, baholash
konstruktleri, gapirish
ko'nikmasi, kommunikativ
yondashuv, holistik baholash,
analitik baholash, ravonlik,
talaffuz, validlik, ishonchlik, til
ta'limi.*

ABSTRACT

Ushbu maqolada o'quvchilarning og'zaki nutq ko'nikmalarini baholash konstruktlerining tarixiy taraqqiyoti va zamonaviy rivojlanish bosqichlari tahlil qilingan. Xususan, Prussiya va Angliya maktablarida og'zaki nutqni baholash mezonlarining shakllanishi, kommunikativ yondashuv ta'sirida yuzaga kelgan o'zgarishlar hamda holistik va analitik baholash usullarining afzallik va kamchiliklari yoritilgan.

Hozirgi kunda zamonaviy ta'limning asosiy maqsadi o'quvchiga faqat bilim berish emas, balki ularning hayotiy ko'nikmalarini har tomonlama shakllantirishdan iborat. Binobarin, texnika rivojlangan ayni davrda jamiyat bilimli shaxsdan ko'ra, tadbirkor, ijodkor va har qanday yangilikka moslashuvchan avlodga muhtoj. Shu sababdan bugungi kunda maktabda egallangan bilimlarni hayotda qo'llay oluvchi shaxsni tarbiyalash masalasi ustuvor vazifa sifatida ko'rilmogda.

Xususan, o'quvchilarning yaratuvchanlik va ijodkorlik qobiliyatlari eng ko'p ona tili darslarida shakllantiriladi. Ta'kidlash joizki, til insonning eng asosiy ijodiy qurolidir. Har qanday yangi fikr, tasavvur, hikoya, she'r, drama faqat til orqali ifodalandi. Ona tili darslarida talim oluvchining tildan mustaqil foydalanish, yozma va og'zaki tarzda o'z fikrlarini bayon qilish ko'nikmalari rivojlanadi.

Darhaqiqat, 2022-yilda PISA xalqaro baholash tadqiqotidan yuqori natijalarni qayd etgan mamlakatlar Singapur(41), Koreya(38) va Kanada(38) davlatlaridir. Ularning muvaffaqiyati ona tili darslarida ijodiy yozuv (creative writing) hamda og'zaki ijodiy vazifalarga katta e'tibor berishidir.¹ Bundan tashqari baholashning tizimli yo'lga qo'yilgani, ya'ni bunda o'quvchilar xato topish uchun emas, balki ularning kreativligini oshirish maqsadida baholanadi.

Jahonda tilni o'rganish va uning shakllanganlik darjasini baholash bilan shug'llanuvchi maxsus ilmiy tadqiqot markazlari faoliyat yuritmoqda. Germaniyada ECL(European Consortium for the Certificate of Attainment in Modern Languages), Fransiyada DELF (Diplôme d'Études en Langue Française), Buyuk Britaniyada IELTS (International English

¹M.Reiss (2025) Exploring creative thinking skills in PISA:an ecological perspective on high-performing countries. National libra ry.

Language Testing System) singari baholash tizimlari nemis, fransuz hamda ingliz tillarini ikkinchi til sifatida til bilish darajasini aniqlash bilan shug'ullanadi. Jumladan, Xitoyda tashkil etilgan ZNC (yozma) hamda Putonghua (og'zaki) malaka testlari xitoy tilida so'zlovchilarning og'zaki va yozma nutqi qay darjada ekanligini aniqlab beradi.

Jahon miqyosida birinchi bo'lib 1834-yil Prussiya (hozirgi Germaniya) ta'lim vaziri von Altenstein qarori bilan barcha maktab va gimnaziyalarda og'zaki nutq uchun alohida o'quvchilarga baholar qo'yilgan. Baholar jurnalga rasman qayd etib borilgan. Bu tarixda ona tili darslarida o'quvchilar og'zaki nutqni baholash bo'yicha birinchi rasmiy talab sifatida tilga olinadi.² Bu butun mamlakat bo'ylab qabul qilingan qaror bo'lib, bu borada maxsus hujjat e'lon qilingan.

O'sha davrda og'zaki nutqni baholash uchun bir qator shart va talablar mavjud bo'lgan. Asosan, og'zaki nutqni baholashda uning ravonligi va grammatik tog'riligiga e'tibor qaratilgan. Bundan tashqari o'quvchi yoshiga mos matn o'qitilib, og'zaki nutqdagi intonatsiyasiga baho berilgan.³

Keyinchalik, 1870-yil Angliyada maktab ta'limi islohoti o'tkazilib, o'rta maktablarda maxsus og'zaki nutqni baholovchi imtihonlar joriy etilgan. Angliya maktablarida og'zaki nutq imtihonlari uchun birinchi navbatda nutq madaniyati va etikasi yetakchi talablardan biri bo'lgan. Prussiyadagi og'zaki imtihonlar singari Angliyada ham matn o'qitilib talaffuz va intonatsiyaga baho berilgan.⁴ Demak, XIX asrda og'zaki nutqning tashqi tomoniga ko'proq e'tibor qaratilib, nutqning mantiqiyliigi, asosiligi, jo'yaliligi va aniqligiga ikkilamchi talab sifatida qaralgan. Bundan tashqari, og'zaki imtihon topshiruvchui shaxsdan baland ovozda gapirish sharti ham qo'yilgan. Ularning fikricha, yuqori ton bilan so'zlangan nutq tinglovchiga tushunarli yetkaziladi.

XX asr Angliya ta'lim tizimida yanada muhim o'zgarishlar bo'lgan davr sifatida tilga olinadi. Xususan, o'rta maktablarda maktab sertifikat (school certificate) tashkil qilingan bo'lib, bu ilk standartlashtirilgan malaka darajasi beriladigan hujjat hisoblangan. Ushbu tizimni tashkil qilishdan maqsad o'quvchilarning umumiy bilimlarini baholash hamda universitetga o'qish uchun yagona standartga ega darja berishdan iborat bo'lgan. Olinajak imtihonning og'zaki ingliz tili (Oral English) qismi mavjud bo'lib, bunda o'quvchilarning kundalik hayotdagi vaziyatlarda nutq so'zlash mahorati tekshirilgan.⁵

Maktab sertifikatning og'zaki nutq qismida asosan ravonlik (fluency), talaffuz (pronunciation), tushunarlilik (intelligibility), ifodaviylik (expression), va tushunarlilik (comprehension) jihatlariga baho berilgan. Bu qismda 4xil daraja mavjud bo'lib,

1-daraja -A'lo (distinction) og'zaki imtihonda ifodali, ravon va xatoiz gapirilsa, 80 % va undan yuqori natija ko'rsatsa;

2-daraja - Yaxshi (credit) og'zaki imtihonni ravon, mantiqli va har bir savolsa aniq javob berib, umumiy 60-79% ni tashkil qilsa;

3 -daraja - Qoniqarli (pass) og'zaki imtihonda murakkab savollarni o'tkazib yuborib, faqat qisqa oddiy javob bersa, bergan javoblarida ba'zi xatoliklar mavjud bo'lsa, umumiy 40-59% ni ko'rsatsa;

4-daraja - Muvaffaqiyatsiz yoki o'tmadi (fail) bu eng past daraja bo'lib, o'quvchi og'zaki imtihondan o'ta olmaganini bildiradi. Agar minimal talablar bajararilmasa, ya'ni umumiy natija 40 % ni tashkil qilib, og'zaki savollarga javob bera olmasa, yuqoridagi darajalar beriladi.⁶

² Karl A. (1989) Schleunes – Schooling and Society in Germany.44-47pp.

³ James E.Russell (1988) – German Higher school. 112p.

⁴ Revised Code of Minutes (1870) Article 17-19.

⁵Roger Hawkey and Michael Milanovic.(2013) Cambridge English Exams – the firs hundred years . Chapter 2.

⁶ School Certificate Examinations in England, 1918-1950 A historical investigation of the formation and maintenance of a national examination system: Examination Boards, teachers and the state

Ko'rinib turibdiki, Angliya ta'limida gapirish ko'nikmasini baholash 50 yil ichida birmuncha takomillashgan. Og'zaki nutqning shaklidan ko'ra, mazmun konstruktlariga e'tibor berila boshlagan.

Ta'limda kommunikativ yondashuv kirib kelgandan so'ng, tilga kommunikatsiya vositasi sifatida qaralib, og'zaki nutqni baholovchi konstruktlarga ham bir qator o'zgarishlar bo'ldi.

Og'zaki nutq konstruktlari keyinchalik lingvistik, sotsiolingvistik, pragmatik kompetentlarni o'z ichiga olindi va kundalik hayot bilan bog'lik vaziyatlarga alohida urg'u berila boshlandi. XX asr oxiriga kelib og'zaki nutq baholashning holistik va anilitik turlaridan foydalanib tekshirila boshlandi.

Holistik va analitik baholash og'zaki nutqni baholashda ishlatiladigan yondashuv bo'lib, ular bir-biridan umumiy va alohida baho berilishiga ko'ra farqlanadi. Xususan, holistik baholashda og'zaki nutqning barcha konstruktlariga umumiy baho beriladi. Bu yondashuv nutqning barcha jihatlarini (ravonlik, ifodaviylik, to'g'rilik) bir butun sifatida ko'radi, alohida mezonlar asosida baholanmaydi.⁷ Tadqiqotlardan ma'lumki, holistik baholash soddaligi va tez amalga oshishi bilan boshqa baholash turlaridan ajralib turadi, ammo bunda sub'yektivlik yuqori bo'lishi mumkin.

Tunis universitetida Maha Ounis og'zaki nutqni holistik baholash bo'yicha 20ta nutqni tekshirib ko'rgan, xolistik baholashda baholovchilar natijalari orasida keskin farqlar bo'lgan. Ular nutqning turli jihatlariga turlicha e'tibor qaratgani ma'lum bo'ldi.⁸ Natijada baholashdan so'ng olingan xulosalar o'z ishonchliligini yo'qotgan.

Bundan tashqari, Yuji Nakamura (2004) ham holistik baholash yondashuvi asosida yozma nutqni tekshirib ko'radi. Tadqiqotidan olingan natijalarga asoslanib quyidagicha fikr bildiradi: "Holistik baholashning kommunikativ effekti ancha yuqori, ammo baholashning validlik tamoyillariga to'liq javob bera olmaydi."⁹ Chindan ham, holistik baholash jarayoni boshqa yondashuvlardan oson amalga oshirilsa-da, haqqoniy natija olish qiyin kechadi. Ona tili darslarida o'qituvchi o'quvchilar og'zaki nutqni baholashda holistik baholash usulidan foydalansa, vaqtdan yutishi mumkin, ammo o'quvchining real qobiliyatini aniq baholay olmaydi.

Analitik baholashda esa mezon bo'yicha har bir konstrukt alohida baholanadi. Masalan, ravonlik, so'z boyligi, grammatik aniqlik, talaffuz va gaplarning bir-iriga bog'lanishi uchun alohida umumiy ball beriladi.

Analitik baholash ustidan qator izlanishlar olib borilgan. Bir nechta tajriba-sinovlar asosida analitik baholashning ishonchlilik va validlik darajasi yuqori ekanligi isbotlangan. Xususan, tadqiqotchi olimlar Greg Smith, Khanh Vo va boshqalar analitik va xolistik baholash o'rtasidagi farqni tushuntirib berishgan. Ular tuzib chiqqan analitik rubrikalar holistik baholashdan ko'ra 15-25% yuqori natijani ko'rsatgan.¹⁰

Maha Ounis esa aynan og'zaki nutqni o'lchashda analitik mezondan foydalanib, gapirish ko'nikmasini baholashda eng samarali usullari biri sifatida tilga oladi, chunki u nutqning kuchli va zaif tomonlarini aniq ko'rsata olishini dalillar asosida tushuntirib bergan.

Analitik baholashning eng afzal tomoni shundaki, baho berishda eng kichik detallar ham hisobga olinadi, olingan natija 90% ishonchli va obyektivlikka asoslangan, faqat baholash biroz murakkab kechadi va ortiqcha vaqt talab qiladi.¹¹

⁷R.Metruk.(2017)Comparing holistic and analytic ways of scoring in the assessment of speaking skills. Journal of teaching English for specific and academic purposes.

⁸ M.Ounis. A comparison between holistic and Analytic assessment of speaking. Journal of language teaching and research.

⁹ Yuji Nakamura (2004) A comparison of holistic and analytic scoring methods in the assessment of writing.

¹⁰ G.Smith, K.Vo. A Retrospective Cohort Analysis Comparing Analytic and Holistic Marking Rubrics in Medical Research Education. 2024.

¹¹ Shuai Li, Ting Wen, Chuan Lin. Comparing holistic and analytic marking methods in assessing speech act production in L2 Chinese. 2022.

Bir soʻz bilan aytganda, bunday baholash turlari XX asr oxirlaridan boshlab taʼlim tizimida qoʻllanib bir qator samarali yutuqlarga erishilgan. Dastlab Angliya taʼlimidan boshlanib, Yevropa va Osiyo davlatlari taʼlimi uchun asos boʻlib xizmat qilgan. Shuningdek, ilk marotaba ogʻzaki nutqni baholash uchun analitik mezon rubrikalari yaratilgan, keyinchalik yozma nutq uchun andoza vazifasini oʻtagan.

Oʻquvchilarning ogʻzaki nutq koʻnikmalarini baholash konstruktlarining tarixiy taraqqiyoti va zamonaviy rivojlanish tendensiyalari tahlil qilish jarayonida tadqiqot natijalari shuni koʻrsatdiki, dastlabki davrlarda ogʻzaki nutqni baholashda asosan talaffuz, ravonlik va intonatsiya kabi tashqi nutqiy koʻrsatkichlarga eʼtibor qaratilgan boʻlsa, keyinchalik nutqning mazmuniy, kommunikativ va pragmatik jihatlari ham muhim mezon sifatida qarala boshlagan. Shuningdek, taʼlimda kommunikativ yondashuvning kirib kelishi natijasida ogʻzaki nutqni baholash konstruktleri sezilarli darajada kengaygan. Lingvistik, sotsiolingvistik va pragmatik kompetensiyalarni qamrab oluvchi yangi mezonlar paydo boʻldi hamda oʻquvchilarning real hayotiy vaziyatlarda samarali muloqot qila olish qobiliyatini aniqlash asosiy maqsadga aylandi. Bu esa milliy taʼlim tizimida ham ogʻzaki nutqni baholash uchun zarur boʻlgan izchil konstruktler tizimini yaratish va takomillashtirish zaruratini yuzaga keltiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar roʻyxati:

1. G.Smith, K.Vo. A Retrospective Cohort Analysis Comparing Analytic and Holistic Marking Rubrics in Medical Research Education. 2024.
2. James E. Russell (1988) – German Higher school. 112p
3. Karl A. (1989) Schleunes – Schooling and Society in Germany. 44-47pp.
4. M. Reiss (2025) Exploring creative thinking skills in PISA: an ecological perspective on high-performing countries. National library.
5. M. Ounis. A comparison between holistic and Analytic assessment of speaking. Journal of language teaching and research.
6. Revised Code of Minutes (1870) Article 17-19.
7. Roger Hawkey and Michael Milanovic. (2013) Cambridge English Exams – the first hundred years. Chapter 2.
8. R. Metruk. (2017) Comparing holistic and analytic ways of scoring in the assessment of speaking skills. Journal of teaching English for specific and academic purposes.
9. Shuai Li, Ting Wen, Chuan Lin. Comparing holistic and analytic marking methods in assessing speech act production in L2 Chinese. 2022.
10. Yuji Nakamura (2004) A comparison of holistic and analytic scoring methods in the assessment of writing.